

**FARG'ONA-TOSHKENT MAQOMLARI YORDAMIDA O'QUVCHI
YOSHLARNI MUSIQIY DID VA NAFOSAT TARBIYASINI
SHAKLLANTIRISH**

Xolmirzayeva Gulnoza Alijonovna

Ilmiy tadqiqotchi

Abstract: *In this article, the goals and objectives of the "Traditional singing" lesson, teaching methods, requirements set by the state educational standard, organization of lessons based on new pedagogical technologies with the help of the status of Fergana-Tashkent schools are discussed. lesson plans for classes and classes, The role of Fergana-Tashkent status roads in our cultural life is described.*

Аннотация: *В данной статье рассмотрены цели и задачи урока «Традиционное пение», методы обучения, требования, предъявляемые государственным образовательным стандартом, организация уроков на основе новых педагогических технологий с помощью статуса школ Ферганы-Ташкента.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada, Ixtisoslashgan maktablarda Farg'ona-Toshkent maqomlari yordamida "An'anaviy xonandalik" darsining oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalari, o'qitish metodlari, davlat ta'lim standarti qo'ygan talablar, darslarni yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil qilish yo'llari va sinflar bo'yicha dars ishlanmalari, Farg'ona- Toshkent maqom yo'llarining madaniy hayotimizda tutgan o'rini haqida bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *Farg'ona- Toshkent maqom yo'llari, "An'anaviy xonandalik" fani, xalq kuy va qo'shiqlari, maqom, shashmaqom, doston, mumtoz musiqa, xonanda va sozanda, bastakor, shashmaqom, ilm-fan, madaniyat va ma'naviyat, an'anaviy ijrochilik, milliy cho'lg'u asboblari.*

Ixtisoslashgan maktablarda Farg'ona-Toshkent maqomlari yordamida “An’anaviy xonandalik” darsining oldiga qo’yilgan maqsad va vazifalari, o’qitish metodlari, davlat ta’lim standarti qo’ygan talablar, darslarni yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil qilish yo’llari va sinflar bo’yicha dars ishlanmalaridan foydalaniladi.

“An’anaviy xonandalik” fani o’quvchilarning ma’naviy, badiiy va axloqiy madaniyatini shakllantirishga milliy g’urur va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishga ijodiy mahorat va badiiy didni o’stirishga, fikr doirasini kengaytirishga, mustaqil va tashabbuskorlikni tarbiyalashga xizmat qiladi. “An’anaviy xonandalik” fani ixtisoslashgan musiqa va san’at maktablarida o’qitiladigan barcha o’quv predmetlari, jumladan, adabiyot, tasviriy san’at, jismoniy tarbiya, mehnat va boshqa fanlar bilan bog’lanadi. Barcha o’quv fanlari qatori musiqiy ta’limda ham davlat ta’lim standartlarining joriy etilishi milliy musiqiy merosimizdan to’laqonli foydalanish imkonini beradi. Bular ommaviy xalq kuy va qo’shiqlarida, xonanda va sozandalarning ijodiy faoliyatlarida, maqom, shashmaqom, doston va bugungi zamonaviy musiqiy faoliyatda o’z aksini topadi. Musiqa san’atining bu kabi imkoniyatlari yangi avlodni tarbiyalashda, ularni barkamol bo’lib yetishishlarida o’ziga xos va takrorlanmas manbaa bo’lib xizmat qiladi. Azaldan Sharq, jumladan, o’zbek musiqa ta’lim-tarbiyasi, pedagogikasi va uning mukammal uslubiyotlari ustoz – shogird an’analarini misolida takomillashib borgan. Farg’ona-Toshkent maqomlari yordamida xalq musiqa ana’nalarini o’rganish, professional musiqa ijodkorlari, musiqa ijrochilari, katta ashulachilar, maqomchilar, katta ashula, bolalar folklori, hotin-qizlar ijodi kabi musiqiy janrlarni o’rganish muhim omil bo’lib hisoblanadi.

Farg’ona-Toshkent maqomlari o’qitish odatda, “An’anaviy xonandalik” fanida o’rgatish tamoyillariga muvofiq o’tiladi. Asarlarni taxlil qilish, so’zlariga e’tibor berib, ilmiy tushunib ijro etish, o’quvchilarga tarbiyaviy ta’sir ko’rsatadi. An’anaviy xonandalik darslarining mazmuni o’quv dasturiga muvofiq bo’lib, u boshqa darslar tizimidagi bo’g’inlarni qamrab oladi. Musiqa savodxonligini rivojlantirishda o’quvchilarning iqtidori ham muhim sanaladi, buning barobarida

o'quvchilarning bilimi oshadi, vokal-xor malakalari rivojlanadi, axloqiy estetik fazilatlarini hamda mehnatga munosabati shakllantiriladi. Bunda musiqiy faoliyat turlari o'zaro bir-biri bilan bog'langan bo'lishi, kerak. Musiqali harakatlar, cholg'uchilik va ijodkorlik faoliyatlarni amalga oshirishda turli metodlardan keng foydalanish tavsiya etiladi. Zotan, ushbu faoliyatlar ko'proq mumtoz musiqa san'atining xususiyatlari bilan bog'liq. Dasturda tinglash va kuylash uchun asarlar talab darajasidan ortiq berilgan. Unda murakkablik darajasiga qarab mavzulariga moslab asarlarni tanlash va lozim bo'lganda dasturdan tashqari asarlardan ham foydalanish mumkin. Masalan: Haziniy g'azaliga mansub, "Farg'ona tong otguncha", Fuzuliy g'azaliga mansub Bayot-1 kabi asarlarni misol keltirishimiz mumkin. Nota savodi, cholg'uchilik, honandalik, shuniingdek, musiqa ijodkorligi faoliyati mazmunida tavsiya etilgan asarlar ham shartli ravishda berilgan. Dars sharoitiga qarab ularni almashtirish mumkin. Bu esa darslarni rejalashtirishda va darslarga tayyorgarlik ko'rishda ijodiy yondoshishni taqazo etadi. Dasturda asarlar va mashg'ulotlar mazmuni har bir faoliyat turiga doir alohida – alohida ko'rsatilgan bo'lsa-da, darslarni rejalashtirishda va ularni o'tishda dars mazmunidan kelib chiqishi va uning mohiyatini ochib berishi lozim bo'ladi, shu bois, darsda musiqa faoliyatlari mantiqan birlashib, mazmunan bir butunlikni tashkil qiladi. Yakka dars-mashg'ulotlarida o'quvchilarga ana'naviy ijrochilik haqida tushuncha berish, qo'shiq ijro etishning asoslarini o'zlashtirish, nafasni to'g'ri ishlatish ko'nikmalarini o'rgatish, ovozni sozlash qo'shiq (ashula) so'zlarini to'g'ri talaffuz etishga e'tibor qaratishni o'rgatib borish lozim.

O'rgatiladigan asarlar o'quvchilarni musiqiy qobiliyatlarini o'stirib, milliy mumtoz qo'shiq va ashulalar, bastakorlar asarlarini ijro etishga o'rgatish orqali bilim ko'nikma va malakalarini rivojlantirib borishi lozim. Bunda musiqa janrlari, shakllari, milliy musiqa asboblari bilan tanishtirish, ijrochi, tinglovchi, kompozitor va bastakorlar haqida, musiqa ifoda vositalari kuy, temp, registr, dinamika va boshqalar bilan tanishtirishni maqsadga muvofiqdir. Mashg'ulotlarni tashkil etishda an'anaviy xonandalik, cholg'u ijrochiligi, vokal, musiqa savodi kabi barcha faoliyatlar nazariy birlashtiruvchi faoliyat sifatida muhimdir. Darsda qaysi faoliyat

turi qo'llanilmasin, amaliyotida tanlangan asarlar o'rganiladi va ularning xususiyatlari (janri, tuzilishi, ijrochilari va xokozo) xaqida o'quvchlarda yangi tushunchalar xosil bo'ladi. Dars jarayonida qo'shiq kuylashdan oldin, ana'naviy uslubda, ovoz sozlash mashqlari bunga yaqqol misol bo'la oladi. O'zbek va mumtoz ashulachiligimiz ijrochilik maktabi esa mutlaqo boshqa uslubda, har-bir nota va kuylash bo'lakchalariga alohida bezak, nola, nolish, honish, tovushlarni kuylashda tebratma harakatlarda ushlab turish va ashulalarimizning bezagi bo'lgan avj pardalarda kuylash malaka va ijro mahorati maktabi ustun turadi. Ijrochiligimizdagi bu qirralarni yuzaga chiqarishimiz uchun ovoz sozlash mashqlari ham shu yo'sinda berib borilish zarur. Buning uchun an'anaviy xonandalik maktabidan ijro namunalaridan talabalar imkoniyatlariga mos holda ashula "Xang"lari, daromad va miyonxat qismlaridan ashulalar bo'laklaridan namunalardan foydalanib borishimiz lozim.

An'anaviy xonandalik malakalarini shakllantirish uchun quyidagilarga e'tibor berishi lozim.

1. Nafas olish, tovushni to'g'ri shakllantirish;
2. Nafas olish va uni tejamli sarflash;
3. Kuylayotgan paytda qomatni to'g'ri tutish;
4. Yelkalarni ko'tarmasdan, shovqinsiz, erkin va chuqurroq nafas olishga xarakat qilish;
5. Kuylayotgan vaqtda og'izni erkin ochib, so'zlarni aniq va burro talaffuz qilish;
6. Sof, tiniq va jozibali kuylash;
7. Barcha registrlarda yuqori ovoz xosil qilib kuylay olish;
8. Turlicha ovoz sadolari bilan kuylay olish sanoyi nafisa ovoz afzalliklaridan foydalanish;
9. Ovoz tayanchini hosil qilish;
10. Nafasni qovurg'ani pastida, qoringa olish, shovqinsiz va uni tejamli sarflash;

Ovoz mashqlari:

1. Nafas olish va uni chiqarish mashqlari;
2. Talaffuz artikulyatsiya (i, a, o, m, t, pi, zi, to, tu) diksiya (soʻzlarni dona-dona, burroli) uchun mashqlar;
3. Ashula, qoʻshiq soʻzlari ustida ishlash;
4. Ovozni oʻstirish, ovoz diapozonini kengaytirish uchun mashqlar;

Xonandalarni qoʻshiq aytishga tayyorlash. (ovoz mashqlari)

Maʼlumki har bir mashgʻulot xonandaning ovozlarni qoʻshiq aytishga tayyorlash va ohang eshitish qobiliyatlarini koʻzda tutuvchi mashqlarni bajarishdan boshlanadi. Mashqlar 10-15 daqiqa va undan koʻproq davom etishi mumkin. Bu ovozni toʻgʻri hosil qilish, toʻgʻri nafas olish, yaxshi ansambl va jarangdorlikka erishishga yordam beradi. Xonandalarni qoʻshiq aytishga tayyorlashning toʻgʻri uslublari mavjud:

1. Mashqlarni butun guruh yoki alohida ovoz turlari boʻyicha kichik guruhlar bilan ishlash.
2. Maʼlum unli tovushlar, boʻgʻimlar va soʻzlar yordamida ish olib borish.
3. Turli tovush yoʻnalishlarida (legato, stakkato, markato) uslubida ish olib borish.
4. Turli dinamik (tovush kuchi) surʼat uslubida ish olib borish.
5. Ayrim halq qoʻshiqlari boʻlaklaridan foydalanib ijro qilish.

Qoshiq matni ustida ishlash. Anʼanaviy xonandalikda xalq ashulalari namunalarini yoshlarga singdirishda milliy ijrochilikda muhim boʻlgan soʻz va talaffuzning oʻrni beqiyosdir. Anʼanaviy xonandalik sanʼatida idroklash lozim boʻlgan quyidagi nazariy va amaliy malakani toʻla oʻzlashtirishni taqozo etadi. Bular, anʼana va meros, nafas ishlatish uslubi, sheʼriyat va talaffuz hamda munosabat amallaridir. Bu omillar xonandalik amaliyotida charxlanib, oʻzlashtiriladigan zarur holatlar ekanligini unutmaslik lozim. Ijrochilikni shakllantirishda soʻz va talaffuz mahorati asosiy muammolardan biridir. Maʼlumki, sheʼriyat va musiqa azal-azaldan bir-biriga yoʻldosh sanʼat turlari sifatida, shakllanib, rivojlanib, ardoqlanib kelingan. Ohanglar bagʻrida sheʼrning, yaʼni soʻzlarning taʼsiri yanada jonli, taʼsirchan va yoqimli boʻladi. Shunday ekan,

ijrochilik bilan shug'ullanayotgan har bir yosh xonanda she'riyatdan bohabar bo'lishi zarur. Mumtoz ashulalarning mohir ijrochisi Orifxon Hotamov: "Agar mumtoz ashulalarni kuylamoqchi bo'lsang, matnni sinchkovlik bilan o'qi, she'r, g'azal zamiridagi ma'noni, shoir maqsadini to'la tushunib ol, ana shundan keyingina ashula ustida ishlagin. Sen kuylagan ashulalar tinglovchi qalbiga qanday yetib borganini o'zing ham sezmay qolasan". Komiljon Otaniyozov ham shogirdlariga: "Xonanda savodli, ma'lumotli bo'lishi, og'zidan chiqqan so'zning ma'nosiga tushunish uchun adabiyotni ko'p o'qishi kerak. Adabiyot bilan san'at og'a-ini, balki egizakdir. Haqiqiy xonanda shoirlar, adiblar bilan yaqin aloqada bo'lmog'i lozimder ekan. Hikoya qilishlaricha, Rasulqori Mamadaliev navbatdagi ashulasini tayyorlar ekan, undagi bir so'zning mazmunini sira chaqolmabdi. O'sha birgina so'zning ma'nosini tushuntirib beradigan kishini butun Qo'qondan izlab topolmagach, ikki ko'zi ojizligiga qaramay, Farg'onaga boradi. Ikki kun ovora bo'lib, o'sha so'zning ma'nosini bilib olgachgina qo'shig'ini rasman ijro eta boshlaydi. So'zimiz avvalida biz yuqorida Abu Abdullo Rudakiy va el sevgan buyuk ustozlarimizni bejiz eslamadik. Hozirgi davrda ijrochilar tomonidan ijro etilayotgan she'r va g'azallarning to'g'ri talaffuz etilishiga e'tibor oz. Bu esa azal-azaldan ongli ravishda mukammal o'rganilib, to'g'ri ijro etib kelingan an'anaviy jarayonga putur yetkazishi mumkinligini e'tirof etish joiz. Aks holda, ijro namunalarini chala holda va noaniq ijro etilish hollariga olib keladi.

O'zbekiston xalq artisti Zamira Suyunova ijrochilar talqinida so'z va talaffuz muammolariga to'htalib shunday degan – "Odatda amaliyotda ustozlarimiz tomonidan ushbu amalga katta etibor bilan qaralgan.

Ovozlar klassifikatsiyasi. Bugungi kunga kelib tovushlar klassifikatsiyasi atroflicha o'rganib chiqilgan. U avval juda oddiy edi. Ikki tur erkaklar va ikki tur ayollar ovozi farqlanib – bu tasnif shu kungacha xorda saqlanib qolgan. Erkaklarning eng baland ovozi tenor bo'lib, uning diapazoni kichik oktava do notasidan ikkinchi oktava do notasigacha tashkil topadi.

Tenor – al'tino – ikkinchi oktava mi notasiga yetib borib, yengil va aniq jaranglaydi.

Lirik tenor – iliq, yoqimli tovush.

Liriko-dramatik tenor – ham lirik, ham dramatik parchalarni ijro etadi, biroq tovush kuchi jihatidan dramatik tenordan keyinda turadi.

Dramatik tenor – tovush kuchli bo'lib, eng tragik holatni ifoda etishga loyiq.

Xarakterli tenor – o'ziga xos tembrga ega tovush.

Bariton katta oktavaning Iya notasidan birinchi oktava Iya notasigacha bo'lgan diapazonni qamrab oladi.

Lirik baritone- yengil jaranglaydi, tenor jarangdorligiga yaqin, ammo baritonli tembrga ega.

Liriko-dramatik bariton – yorqin tembr va sezilarli kuchga ega.

Dramatik bariton – tovushda bir muncha qayg'uli jarangdorlik, diapazoning markaziy va ustki qismida katta kuchga ega.

Bas – erkaklarning eng past ovozi katta oktava fa notasidan birinchi oktava fa notasigacha bo'lgan diapazonni qamrab oladi.

Yuqori bas yoki **bas** – kantante tovushning baritonli tembrini eslatuvchi yorqin diapazonga ega. Markaziy bas bir muncha keng imkoniyatlarga ega bo'lib, diapazoni va tembrini bas xarakterini yorqin ifodalaydi.

Past bas asosan quyuq bas koloritiga, diapazonning bir muncha qisqa yuqori qismiga ega bulib, chuqur, baqquvat past tovushlarni ifodalaydi.

Bas-oktavistlar yoki **bas-rgofondo** xorda kuylanib, kontroktavali qator tovushlarni qamrab olishi mumkin. Tovushlari fa kontroktavasigacha fa notasiga tushib ketgan hollari ham kuzatilgan.

Ayollar ovozi uch turdan iborat: soprano, metstso-soprano,alt

Baland tembrli ayollar tovushi – soprano, birinchi oktava do notasidan uchinchi oktava do notasigacha diapazonni qamrab oladi.

Koloraturali soprano yengil, tiniq jarangdorlikka hamda harakatchanlik qobiliyatiga ega bo'lib, yuqorida uchinchi oktava fa notasigacha, ba'zan Iya notasigacha yetib borish imkoniyati mavjud.

Liriko-koloraturli soprano – bir muncha quyuq, jarangdorligi keng, harakatchan tovush bo'lib, ham lirik, ham koloraturli parchalarni ijro eta oladi.

Lirik soprano – harakatchanligi bir muncha baqquvat va keng tovushga ega bo'lib, tembr bo'yicha yorqin, kumushrang, iliqlikka ega. Yuqorigisida ikkinchi oktavaning do notasigacha yetib boradi.

Liriko-dramatik soprano – keng lirik tovushga, bir muncha to'yingan ko'krak tembriga ega. Dramatik soprano metstsoni eslatuvchi, past notalarda katta kuchdagi jarangdorligi bilan farqlanadi.

Metstso-sopranoning diapazoni kichik oktava lya notasidan to ikkinchi oktava lya notasigacha, ba'zida to uchinchi oktava do notasigacha boradigan to'q tembrli ayollar ko'krak ovozi. Shuningdek, bu guruhda ham bir-biridan quyuq jarangdorligi bilan farqlanuvchi yuqori metstso-soprano va markaziy metstso-sopranolar mavjud. Kontral`to barcha diapazonda to'yingan ko'krak tembriga ega eng past va kam uchraydigan ovoz. Ushbu klassifikatsiyaga tabiatda mavjud barcha ovoz turlarini kiritish qiyin. Ba'zi ovozlar noaniq, oraliq tembr bilan xarakterlanadi. Bunday ovozlar ko'proq o'qitishning boshlang'ich vaqtida uchraydilar va keyinchalik u yoki bu ovoz turi tomoniga rivojlanib ketadilar. Professional ijrochilar orasida ovozning bir turidan boshqa turiga o'tib turishi ham kuzatiladi. Ba'zi xonandalar turli ovozlar uchun yozilgan barcha partiyalarni ijro etish qobiliyatiga ega. Masalan, Mariya Kallas ham dramatik, ham koloraturali partiyalarni ayta olgan. Bunday ovozlar «absolyut ovozlar» deb nomlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O' Ramazonova "Maqom yakka xonandaligi" o`quv qo`llanma. Buxoro sh. Durdona nashriyoti, - 2022. – 212 b.
2. A.I.Petrosyans "Cholg'ushunoslik" 3 nashr. Toshkent, "O'qituvchi" 1995y
3. I.Akbapov. «Musiqalug'ati». Toshkent-1987 yil.
4. Yu.Pajabiy. «Musiqalerosimizga bip nazar » Toshkent- 1978 yil.
5. Nurmatov X. "Uzbek xalq musiqasi" O'qituvchi T.1998
6. Otanazap Matyoqubov. «Maqomot». Toshkent-2004.
7. Yusupov E. "Yoshlarning ma'naviy kamoloti" T.1996y
8. . D.Q.Qodirov.Oltin meros (An'anaviy xonandalik.) G'.G'ulom nomidagi nashriyot-manbaa ijodiy uyi.Toshkent-2016 yil